



КАЗАНСКИЙ НАЦИОНАЛЬНЫЙ
ПЕДАГОГИЧЕСКИЙ УНИВЕРСИТЕТ
ИМЕНИ АБАЙ



«TURKIY XALQLARNING MA'NAVIY INTEGRATSIYASI: TILI, ADABIYOTI, MADANIYATI»

MAVZUSIDAGI II XALQARO ILMIY-NAZARIY KONFERENSIYA

TOSHKENT - 2025

**O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI OLIY TA'LIM, FAN VA
INNOVATSIYALAR VAZIRLIGI**

**ALISHER NAVOIY NOMIDAGI TOSHKENT DAVLAT
O'ZBEK TILI VA ADABIYOTI UNIVERSITETI**

**«TURKIY XALQLARNING MA'NAVIY
INTEGRATSIYASI: TILI, ADABIYOTI,
MADANIYATI»**

**MAVZUSIDAGI II XALQARO ILMIY-NAZARIY
KONFERENSIYA MATERIALLARI**

TOSHKENT - 2025



Mazkur ilmiy maqolalar to'plamida «Turkiy xalqlarning ma'naviy integratsiyasi: tili, adabiyoti, madaniyati» II Xalqaro ilmiy-amaliy konferensiyasi materiallari jamlangan. Maqolalarda turkiy tillarning rivoji va o'zaro o'xshashliklarini, umumiy adabiy merosimizni ilmiy asosda chuqur o'rganish; madaniy aloqalarni zamonaviy texnologiyalar orqali kengaytirish; tarjima va adabiy almashinuv orqali xalqaro miqyosda muloqotni kuchaytirish; raqamli platformalar orqali integratsiyani amalga oshirishga oid fikrlar yoritib berilgan. To'plamdan dunyo bo'yicha taniqli turkiyshunos olimlar, metodistlar, o'qituvchilar hamda ToshDO'TAU iqtidorli talabalarining maqolalari ham o'rin olgan.

To'plam til va adabiyot ta'limi bilan shug'ullanuvchi professor-o'qituvchilar, shu sohaning tadqiqotchilari, magistrant va talabalarga mo'ljallangan.

Taqrizchilar:

G.Asilova – *pedagogika fanlari doktori (DSc), professor.*

G.Norimova – *filologiya fanlari nomzodi, dotsent.*

Tahrir hay'ati:

S.Muhamedova, S.Qambarova, O.Turaqulova,
Y.Shirnova, M.Yo'ldosheva.

Mazkur to'plam matni Alisher Navoiy nomidagi Toshkent davlat o'zbek tili va adabiyoti universiteti Kengashining 2025-yil 2-iyundagi 10-sonli majlisida muhokama qilinib, nashrga tavsiya qilingan.

Izoh: Maqolalarning ilmiy saviyasi uchun mualliflar o'zlari mas'uldirlar.



DOI: 10.52773/tsuull.conf.2025/XBWH8695

MAKTAB TA'LIMIDA RAQAMLI TEXNOLOGIYALARDAN FOYDALANISH

Elboyeva Mahliyo Polvonquli qizi

*Alisher Navoiy nomidagi Toshkent davlat
o'zbek tili va adabiyoti universiteti o'qituvchisi
mahliyoelboyeva166@gmail.com
ORCID ID:0000-0003-2619-3309*

Annotatsiya: Ushbu maqolada maktab ta'limida raqamli ta'lim texnologiyalaridan foydalanish ko'nikmasini shakllantirishning pedagogik asoslari tahlil qilinadi. Badiiy asarni raqamli ta'lim texnologiyasi asosida o'qitish va tushuntirish o'qituvchiga ham bir qadar imkoniyatlar ochadi. Xususan, vaqtni tejashga, o'quvchilarni kreativ va mustaqil fikrlashga, loyihalar yaratishga yo'naltiradi. Bugungi kunda ta'lim tizimimizga kirib kelayotgan yangicha ta'lim texnologiyalari hamda ularning qo'llanilishidagi o'ziga xosliklar xususida so'z yuritilgan. Maqolada o'qituvchilarda va o'quvchilarda raqamli ta'lim texnologiyasidan foydalanish ko'nikmasini samarali rivojlantirish bo'yicha tavsiyalar beradi.

Kalit so'zlar: raqamli ta'lim, texnologiya, aralash ta'lim, teskari ta'lim, kommunikatsiya.

Annotation: This article analyzes the pedagogical foundations of the formation of skills in the use of digital educational technologies in school education. Teaching and explaining a work of art on the basis of digital educational technologies opens up a number of opportunities for the teacher. In particular, it saves time, encourages students to think creatively and independently, and creates projects. The article discusses new educational technologies that are entering our education system today and the specifics of their use. The article provides recommendations for the effective development of skills in the use of digital educational technologies in teachers and students.

Keywords: digital education, technology, blended learning, flipped learning, communication.

Bugungi kunda raqamli texnologiyalar, zamonaviy innovatsiyalar barcha sohalar va odamlar hayotiga shiddat bilan kirib kelmoqda. Shunday ekan, yoshlarni yuksak ma'naviyatli, teran tafakkurli, uzoqni ko'ra oladigan insonlar bo'lib voyaga yetishi uchun ularga yuksak saviyada zamonaviy bilim va ta'lim berish oldimizda turgan dolzarb vazifalardan biridir.

Yangi zamonaviy bilimlarni yoshlarga yetkazish, ularning bilim saviyasini innovatsion usullar yordamida yuksak bosqichga ko'tarishda o'qituvchidan katta mahorat va mashaqqatli mehnat talab etiladi. O'qituvchi fanlarni o'qitishda zamonaviy usullardan foydalanib o'qitmas ekan, bugungi o'quvchilarni boshqara olmaydi. O'quvchilarni bir xilda bilimli qilish bir muncha qiyin masala. Buning sababi maktablarda o'quvchilar sonining ko'pligi, ularga ajratilgan vaqtning nomutanosibligi kabi kamchiliklarning mavjudligidadir. Maktablarda darslar, asosan, bir xilda, an'anaviy tarzda olib boriladi. Shu bilan birga, o'quvchilarning o'zlashtirish darajasini qanday aniqlash mumkinligi noaniqligicha qolmoqda. Buning natijasida o'quvchilarning o'zlashtirish darajasi, bilimlari orasida tafovutlar yuzaga keladi. Natijada keyingi beriladigan bilimlar o'quvchilarning o'zlashtirish darajasiga mos kelmay, ularni ta'limga bo'lgan qiziqishlarini susayishiga olib keladi.



Ta'limda raqamli texnologiyalarni qo'llash, ayniqsa, o'quvchilarning shaxsiy ehtiyojlariga moslashtirilgan ta'lim imkoniyatlarini kengaytiradi. Har bir o'quvchi o'ziga qulay vaqt va joyda bilim olish imkoniyatiga ega bo'lishi, o'qitish jarayonini masofadan turib tashkil qilish imkoniyatini yaratadi²⁰⁶. Raqamli texnologiyalar orqali dars jarayonlari tashkillashtirilsa, ta'lim oluvchilarga ham ta'lim beruvchi o'qituvchilarga ham bir qator imkoniyatlarga yo'l ochgan bo'ladi.

Bunda esa ta'lim tizimi vositalari rolini multimediyalar, kodoskop, kompyuter, noutbuk, internetga ulangan televizorlar, telefon liniyalar, smart doska, proyektorlar bajarib beradi. O'qituvchilar bunday vositalar bilan dars mashg'ulotlarini tashkillashtirsa ta'lim sifatini oshirishni ta'minlaydi. Bugungi kunda adabiyot darslarida ayniqsa bolalar adabiyoti namunalarini o'qitishda raqamli ta'lim texnologiyalaridan foydalanish yaxshi natija berishi bugungi kun tajribalarida yaqqol ko'rinmoqda. Raqamli texnologiya ta'limda quyidagi qulayliklarni yaratadi:

- xohlagan joyida va xohlagan vaqtida ta'lim olish imkoniyatiga ega bo'lishi;
- internetdan axborot olish va undan foydalanish madaniyati shakllanadi;
- ta'lim tizimini yangi bosqichga ko'taradi;
- vaqt va mablag' sarfini keskin kamaytiradi;
- “raqamli dunyo”da yo'qolib qolmaslik va kelajakda kasb tanlashda ham ustunliklarga ega bo'lish²⁰⁷.

Adabiyot darslarida raqamli texnologiyalardan foydalanish o'quvchilarning badiiy asarlarni chuqur tushunishiga, dars jarayonining yanada interaktiv va qiziqarli bo'lishiga yordam beradi. Quyida maktab adabiyot darslarida raqamli texnologiyalarni qo'llash usullari keltirilgan.

1. Elektron darsliklar va audiokitoblar: O'quvchilar raqamli formatdagi darsliklar va audiokitoblardan foydalanib, darsga tayyorgarlik ko'rish mumkin.
2. Interaktiv taqdimotlar va videodarslar: PowerPoint, Canva kabi dasturlar yordamida adabiy asarlarni vizual tarzda taqdim etish mumkin.
3. Virtual muhit va kengaytirilgan reallik (AR/VR): VR texnologiyalari orqali o'quvchilar tarixiy davr muhitiga sayohat qilishlari mumkin.
4. Test va viktorinalar: Quizizz, Kahoot, Mentimeter kabi ilovalar orqali dars oxirida test yoki viktorinalar o'tkazish mumkin.

Bu usullar adabiyot darslarini yanada samarali va qiziqarli qilishga yordam beradi.

Biz bitiruv malakaviy ishimizda raqamli ta'lim texnologiyasidan Blended learning (aralash o'qitish) zamonaviy ta'limning nisbatan yangi, biroq, tobora ommalashib borayotgan shakliga biroz to'xtalib o'tdik.

²⁰⁶ Fozilova L. Raqamli texnologiyalarining ta'lim sohasida qo'llanilishi // Ta'lim va rivojlanish tahlili onlayn ilmiy jurnali. 04(10) 2024. – 101-b.

²⁰⁷ Mirzahmedova N., Raqamli texnologiyalarining ta'lim sohasida qo'llanilishi. – Oriental Renaissance: Innovative, educational, natural and social sciences VOLUME 2 | ISSUE 5/2 | ISSN 2181-1784 SJIF 2022: 5.947 ASI Factor –1.7-540-b.



Blended learning (aralash o'qitish) – onlayn o'quv materiallari hamda o'qituvchi rahbarligida guruhda ta'lim olishga asoslangan o'qitish shakli.

Ushbu shakldagi o'qitish jarayonida o'quvchi mustaqil ta'lim oladi, ammo ayni vaqtda unga guruh va o'qituvchi tomonidan yordam ko'rsatiladi. Blended learning (aralash o'qitish) ko'p holatlarda topshiriqlarga tayanadi va asosiy, muhim ma'lumotlar negizida tashkil etiladi, qo'shimcha materiallar esa o'quvchiga onlayn platforma orqali uzatib beriladi²⁰⁸.

Nega aynan aralash ta'lim? Negaki, ushbu ta'limda an'anaviy, masofaviy va interaktiv ta'limning birgalikda olib borilishidir. Tadqiqotchi A. S. Fominaning qayd etishicha: "Aralash ta'lim onlayn ta'limning an'anaviy ta'lim bilan uyg'unlashuvi, an'anaviy shakllarni elektron texnologiyalar bilan integratsiyalashuvidir"²⁰⁹.

Aralash ta'lim (blended learning) texnologiyasining ko'plab samarali modellari mavjud bo'lib, teskari sinf (flipped classroom) texnologiyasi joy almashinuvi modeli (Station Rotation Model)ning sub-modeli hisoblanadi. An'anaviy ta'lim va masofaviy ta'limni o'z ichiga olgan teskari sinf (flipped classroom) texnologiyasi TOR-1000 reytingidan samarali foydalanib, yuqori natijalarga erishilmoqda²¹⁰.

Flipped classroom – "teskari sinf", "aylantirilgan sinf" atamalarida ham qo'llaniladi. Ushbu metodni 2007-yilda Amerika maktabining kimyo o'qituvchilari Jonatan Bergman va Aaron Sams ixtiro qilgan. Keyinchalik boshqa fan o'qituvchilari ham undan foydalana boshladilar. Nega aynan teskari ta'lim, chunki bunda an'anaviy ta'limdan farq qilgan holda o'quvchilar yangi mavzuni uyda internetga kirish imkoniga ega bo'lgan o'zlarining elektron qurilmalari yordamida onlayn o'quv muhitida o'rganadilar, yangi material bilan tanishadilar yoki o'rganilayotgan materialni mustahkamlaydilar. Teskari sinfda videolar darsdan oldin yozib olinadi va internet orqali talabalarga yuboriladi. Shunchaki yozib olingan ma'ruzalar o'rniga, bu videolarda animatsiyalar, viktorinalar yoki o'quvchilarni qiziqtiradigan boshqa elementlar bo'lishi kerak. Flipped classroom texnologiyasidan foydalangan o'qituvchilar darslarni mazmunli va foydali tashkil eta oladilar chunki yangi mavzuni tushuntirish uchun ketadigan vaqtlarini sinfda turli mashqlar, munozaralar va turli amaliy topshiriqlarni o'tkazishga sarflaydilar. Yana ham aniqroq tushinish uchun an'anaviy hamda teskari sinf metodining farqli jihatlarini ko'rib chiqamiz:

An'anaviy ta'lim metodi	Teskari sinf metodi
Darsdan oldin: O'quvchilar materiallarni qayta o'qiydilar	Darsdan oldin: O'quvchilar video darslik orqali yangi mavzuga tayyorlanadilar.
Dars davomida:	Dars davomida:

²⁰⁸ Sharopova Z. F. "TA'LIM TEXNOLOGIYALARI" darslik. – Toshkent: Navro'z, 2019. – 217- b.

²⁰⁹ Allamova Sh. Umumta'lim maktablarida aralash ta'lim metodikasini ishlab chiqish. Academic research in educational sciences volume 3 | issue 4 | 2022. –895-b.

²¹⁰ Xolmirov B. O'quv jarayonini teskari sinf (flipped classroom) texnologiyasi asosida takomillashtirish. Metodik qo'llanma – Toshkent: Yetakchi nashriyoti, 2024. – 3-b.



O'quvchilar ma'ruza ya'ni yangi mavzuni tinglashadi.	O'quvchilar fikr-mulohazalar bilan asosiy tushunchalarni amaliyotda qo'llashni mashq qiladi.
Darsdan so'ng: O'quvchilar uy vazifasini bajarishga harakat qilishadi.	Darsdan so'ng: O'quvchilar bilimlarini tekshiradi va bilimlarini murakkabroq vazifalar bilan kengaytiradilar.

Xulosa qilib aytadigan bo'lsak, flipped classroomning imkoniyatlari quyidagilardan iboratdir:

- Dars vaqtidan unumli foydalanish imkoniyati;
- Shaxsga yo'naltirilgan ta'lim imkoniyati;
- O'quvchiga yondoshgan ta'lim imkoniyati;
- O'qituvchi va o'quvchi o'rtasidagi uzluksiz aloqa;
- O'quvchilarni rag'batlantirishning ortishi.

Ushbu texnologiya O'zbekistonda tashkil etilganmi? Bunday savol tug'ilishi tabiiy hol. Oliy ta'lim, fan va innovatsiyalar vazirligi huzuridagi Oliy ta'limni rivojlantirish tadqiqotlari markazi tomonidan vazirlik huzuridagi 63 ta OTMLarida "aralash ta'lim (Blended Learning)", "teskari sinf (Flipped Chlassroom)", sun'iy intellekt, virtual haqiqat (Virtual Reality) va shu kabi ta'lim texnologiyalarning joriy etilganlik holati, mavjud muammo va kamchiliklar o'rganildi. O'zbekistonda "teskari sinf" (Flipped Chlassroom) texnologiyasi O'zbekiston Milliy universiteti, Samarqand davlat universiteti, Qarshi davlat universiteti, Jizzax davlat pedagogika universiteti, O'zbekiston-Finlandiya pedagogika instituti, Toshkent moliya instituti, Namangan muhandislik-qurilish instituti, Namangan davlat chet tillari instituti, Andijon davlat chet tillari instituti, Qarshi muhandislik-iqtisodiyot instituti, Toshkent kimyo-texnologiya instituti Yangiyer va Shahrisabz filiallari, Samarqand davlat universitetining Kattaqo'rg'on filiali, Termiz muhandislik-texnologiya instituti va Guliston davlat pedagogika institutlarida va maktablarida joriy qilingan²¹¹.

Teskari sinf texnologiyasini nafaqat oliy ta'lim muassasalariga, balki umumta'lim maktablarida ham joriy qilish juda yaxshi samara beradi. To'g'ri, buni to'la-to'kis joriy qilish uchun kamchiliklar ko'zga tashlanishi mumkin. Lekin bularni ham sekinlik bilan bartaraf etsa bo'ladi. O'qituvchilar va o'quvchilar an'anaviy ta'lim muhitiga o'rganib qolganligi sababli yangi jarayonga moslashishi qiyin kechishi mumkin. Lekin dars jarayoni ijobiy natijaga ko'tariladi. O'qituvchi o'quvchi bilan ko'proq fikr almashishi, darsda turli xil interaktiv metodlarni qo'llay olishi hamda vaqt taqsimotini ijobiy yo'lga qo'yishi mumkin. Ushbu texnologiyani nafaqat bolalar adabiyotini o'qitishda balki barcha fanlar :rasida ham qo'llasa bo'ladi. Biz bitiruv malakaviy ishimizda bolalar adabiyoti namunalarini o'qitish misolida yoritib berdik. Masalan, amaldagi 6-sinf adabiyot darsligida berilgan O'tkir Hoshimovning "Eng og'ir gunoh" asari misolida ko'ramiz:

²¹¹ Xolmirov B. O'quv jarayonini teskari sinf (flipped classroom) texnologiyasi asosida takomillashtirish. Metodik qo'llanma – Toshkent: Yetakchi, 2024.– 27-b.





Avvalo, 2-3 kun oldin yangi mavzuning videoroligi o'quvchilarga yetkaziladi ya'ni ularning telegram guruhlariga tashlab beriladi. Quyida biz mavzu bo'yicha tayyorlagan videoroligimizning havolasini berib o'tamiz:

https://youtu.be/4QUtJQSbwFM?si=ihESqwoiB9_WHTBP

Video darslik zerikarli bo'lib qolmasligi uchun ichiga turli xil topshiriqlar kiritishingiz mumkin. O'quvchilar yangi mavzuga mana shu usulda tayyorlanib keladilar. Dars jarayonida esa siz yangi mavzu o'tmaysiz, o'quvchilar tayyorlanib kelgan asar yuzasidan turli xil bahsli savol-javoblar, qiziqarli topshiriqlar bajartirib, yanada mustahkamlashingiz mumkin:

1. Bolaligingizda qanday o'yinlar o'ynagansiz?
2. Gunoh deganda nimani tushunasiz?
3. Onangizni ranjitib qo'ygan onlaringizni yodga oling, ulardan kechirim so'raganmisiz?
4. Hikoyani o'qib qanday xulosa chiqardingiz?

Mana shunday savol-javoblar orqali o'quvchilarning diqqatini jamlagan holda darsning keying bosqichlariga o'tiladi. Misol uchun, sinfda o'quvchilar 3 guruhga bo'linadi va har bir guruhga ushbu asarga oid reklama tayyorlashlari lozimligi tushuntirib beriladi. Reklama shunday tayyorlanishi kerakki, bevosita o'quvchini o'qishga da'vat eta olishi va qiziqishini orttira olishi kerak.

Namuna:



Shu kabi topshiriqlar orqali darsni juda qiziqarli olib borish mumkin. Asar ularning tasavvurida yana ham jonli gavdalanishi uchun unga ishlangan



kinofilmdan parcha qo'yib berish ham maqsadga muvofiq. Bundan tashqari teskari sinfning yana ham mohiyatini ochib beruvchi asosiy qismlaridan biri bo'lmish Quiz testlar, viktorina savol-javoblar orqali o'quvchilarning bilimlarini yana ham rivojlantirishingiz, mustahkamlab borishingiz mumkin. Bu jarayonda o'qituvchining ham ijodkorlik mahorati juda katta o'rin egallaydi.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Allamova Sh. Umumta'lim maktablarida aralash ta'lim metodikasini ishlab chiqish. Academic research in educational sciences volume 3 | issue 4 | 2022. –895 b.
2. Fozilova L. Raqamli texnologiyalarining ta'lim sohasida qo'llanilishi // Ta'lim va rivojlanish tahlili onlayn ilmiy jurnali. 04(10) 2024. – 101 b
3. Mirzahmedova N., Raqamli texnologiyalarining ta'lim sohasida qo'llanilishi. – Oriental Renaissance: Innovative, educational, natural and social sciences VOLUME 2 | ISSUE 5/2 | ISSN 2181-1784 SJIF 2022: 5.947 ASI Factor –1.7. – 540 b.
4. Sharopova Z. F., "TA'LIM TEXNOLOGIYALARI" darslik. – Toshkent: Navro'z, 2019. – 217 b.
5. Xolmirov B. O'quv jarayonini teskari sinf (flipped classroom) texnologiyasi asosida takomillashtirish. Metodik qo'llanma – Toshkent: Yetakchi, 2024. – 117 b.

DOI: 10.52773/tsuull.conf.2025/QJYN4510

XALQ OG'ZAKI IJODI NAMUNALARINI O'QITISHNING INNOVATSION VA PSIXOPEDAGOGIK ASOSLARI

Abdixoliqova Mastona Raxim qizi

*Alisher Navoiy nomidagi Toshkent davlat o'zbek tili va adabiyoti universitetining
1-bosqich tayanch doktoranti (PhD)
norqulovamastona@gmail.com
ORCID ID: 0000-0003-1164-1244*

Annotatsiya. Mazkur maqolada xalq og'zaki ijodi namunalarini o'rganish va o'rgatish jarayonidagi zamonaviy, innovatsion yondashuvlar tahlil qilingan. Interaktiv metodlar, texnologiyalardan foydalanish, individual yondashuv va psixologik qo'llab-quvvatlashning ahamiyati ochib berilgan. Xalq og'zaki ijodi namunalari yordamida nutqni rivojlantirishda pedagogning roli, dars samaradorligini oshirishdagi strategiyalar va o'quvchilarning faolligini ta'minlash yo'llari yoritilgan. Tadqiqot metodikasi amaliy misollar bilan boyitilgan. Ijodiy tafakkur – bu shaxsning mavjud bilim va tajribalari asosida yangi, noodatiy, samarali g'oyalarni ilgari surish qobiliyatidir. Topishmoqlar, maqollar va tez aytishlar orqali bolalarda obrazli fikrlash, nutq boyligi, mustaqil izlanish va mantiqiy xulosalarga kelish ko'nikmalari rivojlanadi. Topishmoqlar – obrazli tafakkur va taxmin qilish qobiliyatini, maqollar – axloqiy ong va hayotiy tajribani, tez aytishlar esa talaffuz, eslab qolish va diqqatni rivojlantiradi.

Kalit so'zlar: tez aytishlar, maqol, topishmoq, innovatsion metod, talaffuz, texnologiya, nutq madaniyati, individual yondashuv, psixologik muhit.

Аннотация. В статье анализируются современные, инновационные подходы к изучению и преподаванию устного народного творчества. Раскрывается важность интерактивных методов, использования технологий, индивидуального подхода и психологической поддержки. На примерах устного народного творчества освещается роль учителя в развитии речи, стратегии повышения эффективности урока и способы



<i>NUTQINI BAHOLASH PEDAGOGIK-METODIK MUAMMO SIFATIDA</i>	
<i>Ermatova Durdona Zafarjon qizi. INDUCTIVE AND DEDUCTIVE METHODS IN TEACHING UZBEK AS A FOREIGN LANGUAGE: A COMPARATIVE PEDAGOGICAL ANALYSIS</i>	797
<i>Raxmatullayeva Ruxshona Sherzod Qizi. O'ZBEK MILLIY TAOMLARI NOMLARINING SHEVALARDAGI UMUMIY VA FARQLI JIHATLARI</i>	800
<i>Xudayberdiyeva Orifaxon Rustamjon qizi. O'ZBEK TILSHUNOSLIGIDA LEKSIKA TUSHUNCHASI</i>	803
VII SHU'BA. TURKIY XALQLAR ADABIYOTINI O'QITISHDA ZAMONAVIY YONDASHUVLAR	
<i>Р.Нуёзметова. БАДИЙ АСАРДА ТАБИАТ ТАСВИРИ ВА ҚАҲРАМОНЛАР ТУЙҒУЛАРИ ИФОДАЛАНИШИНИ ЎРГАНИШ</i>	809
<i>Р.Нуёзметова. O'ZBEK ADABIY TA'LIMIDA XORIJIY METODLARDAN FOYDALANISH METODIKASI</i>	813
<i>Исманова Акибатхан Алимжановна. АБДУЛЛА ҚОДИРИЙНИНГ “ЎТКАН КУНЛАР” ВА ТЎЛАГАН ҚОСИМБЭКОВНИНГ “СИНГАН ҚИЛИЧ” АСАРЛАРИДА ХОНЛИКЛАР ДАВРИНИНГ БАДИЙ ТАЛҚИНИ</i>	820
<i>Turakulova Okila Amirkulovna. TA'LIM JARAYONIDA YOSHLARIMIZNING MILLIY O'ZLIGINI ANGLASHIDA BADIY ASARLARNING TUTGAN O'RNI</i>	825
<i>To'ychiyeva Mahfuza Umarkulovna. TA'LIM TIZIMIDA MANTIQUIY FIKRLASHDAN FOYDALINISH MASALASI: O'TMISH VA BUGUN</i>	830
<i>Oymatova Nilufar Mirjamolovna. JADID ADABIYOTINI O'QITISHDA ZAMONAVIY PEDAGOGIK TEXNOLOGIYALARDAN FOYDALANISH: MAHMUDXO'JA BEHBUDIY IJODINI O'RGANISH TAJRIBASI</i>	839
<i>Musurmonkulova Oysuluv Yulbekovna. ADABIY ASARNING BADIY MAZMUNINI ANGLASH YO'LLARI</i>	844
<i>Elboyeva Mahliyo Polvonquli qizi. MAKTAB TA'LIMIDA RAQAMLI TEXNOLOGIYALARDAN FOYDALANISH</i>	852
<i>Abdixoliqova Mastona Raxim qizi. XALQ OG'ZAKI IJODI NAMUNALARINI O'QITISHNING INNOVATION VA PSIXOPEDAGOGIK ASOSLARI</i>	857
<i>Abduraxmanova Ilmira Alimjonovna. O'QITUVCHINING “SEHRLI TAYOQCHASI”: FAOLLIKNI OSHIRUVCHI METODLAR TAHLILI</i>	862
<i>Abdusattorova Dilshodabegim. ERTAKLARNI O'QITISHDA MULTIMEDIA ILOVALARINING O'RNI</i>	865
<i>Adashaliyeva Nigora Shuhratjonovna. ADABIY TA'LIMDA INNOVATION TEXNOLOGIYALAR VOSITASIDA O'QUVCHILARNING BADIY-ESTETIK TAFAKKURINI RIVOJLANTIRISH</i>	870
<i>Beknazarova Farida Matraxim qizi. 5–6-SINF ADABIYOT DARSLARIDA O'QUVCHILARNING IJODIY QOBILIYATINI RIVOJLANTIRISH</i>	875

